

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY TARBIYANING MAZMUNI VA MOHIYATI

Saminjonova Muyassarxon
Qo'qon universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada milliy tarbiyaning millat kelajagini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Bu yoshlar ongini tarbiyalash va ularni uzluksiz ta'lim olishga tayyorlashda boshlang'ich ta'limning muhimligi, milliy ta'limning muammolari va mumkin bo'lgan kamchiliklarini chuqurroq o'rganishi, uning murakkabliklarini yanada chuqurroq tushunishga yordam berishi ifoda etilgan. Bolalarni jamiyatning mas'uliyatli va o'z hissasini qo'shuvchi a'zolar bo'lishga tayyorlovchi muhim bilim, ko'nikma va qadriyatlarni berishda milliy ta'limning ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, milliy o'quv dasturi, ta'lim texnologiyasi, Davlat va xususiy ta'lim, kasbiy ta'lim, ota-onalar ishtiroki, maxsus ta'lim, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari.

АННОТАЦИЯ

В статье подчеркивается значение национального образования в формировании будущего нации. Выражается значение начального образования в воспитании сознания молодежи и подготовке ее к непрерывному образованию, более глубокому изучению проблем и возможных недостатков национального образования, более глубокому пониманию его сложностей. Подчеркивается важность национального образования в передаче необходимых знаний, навыков и ценностей, которые готовят детей стать ответственными и полезными членами общества.

Ключевые слова: Система образования, национальная учебная программа, образовательные технологии, государственное и частное образование, профессиональное образование, участие родителей, специальное образование, навыки критического мышления.

ABSTRACT

The article highlights the importance of national education in shaping the future of the nation. It is expressed the importance of primary education in educating the minds of young people and preparing them for continuous education, a deeper study of the problems and possible shortcomings of national education, and a deeper understanding of its complexities. The importance of national education in imparting the essential knowledge, skills and values that prepare children to become responsible and contributing members of society is emphasized.

Keywords: Education system, national curriculum, educational technology, public and private education, vocational education, parental involvement, special education, critical thinking skills.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda millatimiz "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g‘oya asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Mazkur g‘oya ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta’lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma’naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini milliy va zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar va asosli psixologik qonuniyatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik qonuniyatlarini o‘rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlik va uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, O‘zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta’lim-tarbiya ishlarini oqilona yo‘lga qo‘yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan texnologiyalari yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish katta ahamiyatga ega. Bu taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, iymoni butun, irodasi baquvvat, teran fikrlaydigan, yuksak salohiyatga ega bo‘lgan kadrlar hal etadi. Yurtimizning kelajagi mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovotiga, milliy ta’lim-tarbiya tizimini jahon andazalari asosida takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlashga, kadrlar tayyorlashga bevosita boliq. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu haqda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edilar: “Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi,

avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarimizning saqlanishi madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bogliqdir". Ilm-fan, madaniyat, ma'rifat va milliy tarbiya har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini oldindan ko'rsatib beradi.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviyaxloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Milliy tarbiyaning etnopedagogik qirralarini ilk bor kashf etgan olimlardan biri — kulturantropolog M. Mid bo'ldi. Uning tadqiqotlari nafaqat geterostereotip (bir

xalqning boshqa xalqlar haqidagi bilimlari yig'indisi)ning, balki Osiyolik va Afrikaliklarda avtostereotip (o'z xalqi haqidagi bilimlar yig'indisi)ning shakllanishiga, boshqacha qilib aytganda, o'zligini anglashga ham turtki bo'ldi. Biz uchun ushbu tadqiqotning pedagogik jihati muhimdir. Zero, M. Mid tomonidan 1927 yili nashr ettirilgan «Samoada ulg'ayish» kitobi tarbiyaning milliylikiga asoslangan ilk ilmiy-tadqiqot natijasidir. Shuningdek, Al-Xusriy arab tilining ilmiy atamalarini yaratishga chaqirib, «milliy tarbiya» tushunchasini ilk bor ilmiy-pedagogik muomalaga kiritdi. Shu tariqa milliy tarbiya, bir tomondan, mulkdor boylar orasida mavjud «o'z manfaatlarini millat manfaatidan yuqori qo'yish va ochko'zlikka, ikkinchi tomondan, mutaasib ruhoniylarning «taraqqiyotga eltuvchi ilg'or g'oyalarga dushmanligi»ga qarshi kurashda samarali qurol bo'lib xizmat qildi.

Milliy tarbiyaning manbai – milliylik! «Millat», «milliylik», «milliy g'urur», «milliy odob», «millatlararo muloqot madaniyati» tushunchalarining o'zagini arabcha «mil» so'zi tashkil qiladi. Bu so'z arabchada «o'zak», «tub mohiyat», «negiz» ma'nolarini anglatadi. «Millat» so'zi esa bir necha ma'noni: 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi; 3) xalq ma'nolarini anglatadi.

«Millat», «milliylik» tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g'arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko'ramiz. Aniqrog'i, g'arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o'zaklarga borib tutashadi. Ya'ni Yevropa xalqlari tillariga «millat» tushunchasi lotincha «natio» - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo'lsa, Osiyoga esa islom ta'limoti orqali yuqoridagi uch xil ma'noda kirib kelib singdi.

«Tarbiya» so'zi «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi bo'lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondoshgan holda, xolis ilmiy-pedagogik ta'rif bermoq kerak. Arabcha «tarbiya», «tarbiyat» so'zlari 1) parvarish qilmoq; ta'lim bermoq; o'rgatish; odob o'rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko'rsatish: ko'z-quloq bo'lish; himoya qilish kabi ko'p qirrali mazmunga ega.

«Tarbiyachi» esa shu ko'p qirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi odam, demakdir. Demak, milliy tarbiyaning lug'aviy ma'nosini «yosh avlodlarni o'z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta'lim bermoq» sifatida aniqlash mumkin. Bu o'rinda tarbiyaviy manba sifatida Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish «Avesto» g'ururi ahamiyatga ega. Unda insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri, ishi birligiga g'ururi e'tibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab, undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lgan, desak, xato qilmagan bo'lamiz. Mana shunga asosan, «Avesto»ning eng asosiy manbasi bo'lgan Zardushtiylik to'g'risida so'z borganda u to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, «Avesto»da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan o'rniga munosabati to'liq yoritilgan.

Zardusht ta'limotida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildirilgan. "Tarbiya — hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u, avvalo, yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin va yana yaxshi ovqatlanadigan xalqdan yaxshi nasl — sog'lom avlod qoladi" – deb ta'kidlanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan vujudga keldi, taraqqiy etdi, jamiyatning o'zgarishi bilan tarbiya ham o'zgarib bordi. Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash, bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar — axloqiy ong, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yig'indisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya — o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy-axloqiy dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va masuliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya deb tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirishi uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishiga aytiladi. Abu Rayxon Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritarkan, "Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo'lishilozim", deydi.

Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida fikr bildirarkan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim deb topadi. "Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki oliyjanob vazifasi, bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug'ullanishi kerak", - deydi.

Umar Xayyomning ta'kidlashicha, tarbiyaning maqsadi "sog'lom fikr, ziyarak aql va o'tkir zehnga ega bo'lgan insonni shakllantirishdan iborat bo'lmog'i kerak". Faqat chuqur zehngina barkamol xalqni qondira oladigan ilhomga erishishi va uning yordami bilan yuksak aql-idrok, farosatni hosil qilish mumkin, lekin shuning o'zi kifoya qilmaydi, inson yuksak axloqqa ega bo'lishi yaqinlarini sevishi lozim.

Alisher Navoiy bola tarbiyasi bilan oila hamda maktabda shug'ullanish, shuningdek, bola tarbiyasini olib borish jarayonida namuna uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg'u beradi. Tarbiya va ta'lim ishlari o'qituvchi hamda ota-onalar tomonidan olib borilishi lozim. Mutafakkir bolalar bilan munosabatda bo'lish chog'ida ular tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklarni bartaraf etishda ularga jismoniy jazo berishdan saqlanish, aksincha, hushmuomalalik bilan yo'l qo'yilgan xatolarning mohiyatini ularga tushuntirish zarurligini, biroq bu o'rinda ma'lum me'yorga amal qilish zarurligini aytadi. Alisher Navoiy o'qituvchining, ayniqsa, talabchan bo'lish; bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sifatlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Abdurahmon Jomiy, avvalo, tarbiya haqida fikr yuritar ekan, har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natija chiqishini, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkamol bo'lishini alohida ta'kidlaydi.

Jaloliddin Devoniy "Bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo'lishi uning keyingi tarbiyasiga bog'liq. Chunki hayotda har kuni bola ko'radigan, muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta'sir etadi. Bolada har kuni insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota - ona va boshqa o'zidan katta yoshlilarni hurmat qilish, to'g'rilik va rostgo'ylikni o'rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so'zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o'rganiladi", deydi.

Abdulla Avloniyning fikricha, axloq bu xulqlar majmuyidir. Xulq esa, kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak.

Asqar Zununovning fikricha, tarbiyada bilim va tajribaga ega bo'lgan, milliy qadriyatlardan xabardor o'qituvchi bolalarni bilimli, go'zal xulqli qilib yetishtirishi shubhasizdir. Ammo ularning bolalarga beradigan tarbiyasi tarbiyaning asosiy zamini bo'lgan oila, tarbiya ilmidan xabardor ota-onalari. Ayniqsa, iffat, sharm-hayo, or-nomus, sabr durdonalaridan ziynatlangan, baxt-saodati mujassam bo'lgan ona tarbiyasi darajasida bo'lmaydi.

Boshlang'ich ta'lim yoshlarning ongi va xarakterini shakllantirishda, ularning kelajakdagi ilmiy, shaxsiy va jamiyatdagi hissalarini uchun poydevor qo'yishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, milliy o'zlikni anglash, mas'uliyat va global fuqarolik tuyg'usini tarbiyalovchi qadriyatlar, bilim va ko'nikmalarni singdiruvchi milliy ta'lim juda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda milliy ta'limning mazmun-mohiyati chuqur o'rganilib, uning ko'p qirrali jihatlari, har tomonlama barkamol shaxs va ahil jamiyatni shakllantirishga qo'yayotgan chuqur ta'siri o'rganiladi.

Milliy ta'lim bolalarning o'z millati tarixi, madaniyati, merosi va an'analari haqida tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Bu shunchaki akademik ta'limdan tashqarida bo'lib, ularda o'z mamlakatining dunyoga qo'shgan yutuqlari va qo'shgan hissalariga tegishli bo'lish, faxrlanish va hurmat tuyg'ularini uyg'otadi. Boshlang'ich ta'lim turli nuqtai nazarlar bilan tanishish va qiziqarli ta'lim tajribasi orqali bolalarda o'z xalqining boy tillari, an'analari va e'tiqodlarini qadrlash, birdamlik va bag'rikenglikni tarbiyalaydi.

Qolaversa, milliy ta'lim bolalarda fuqarolik mas'uliyati va daxldorlik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Bu ularga o'z millatining kelajagini shakllantirishda faol ishtirok etish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Fuqarolar sifatida o'z huquq va majburiyatlarini anglash

orqali bolalarda o'z jamiyatiga va butun mamlakatga ijobiy hissa qo'shishga intilish tuyg'usi shakllanadi.

Bundan tashqari, milliy ta'lim global fuqarolikni rag'batlantiradi, bolalarni tobora o'zaro bog'langan dunyoda harakat qilishga tayyorlaydi. Bu ularni o'z chegaralaridan tashqarida mavjud bo'lgan madaniyatlar, qarashlar va an'analarning xilma-xilligini qadrlashga undaydi, boshqalarga nisbatan hamdardlik, hurmat va tushunishni rivojlantiradi. Boshlang'ich ta'lim global muammolar va muammolar bilan shug'ullanish orqali bolalarda sayyora va uning aholisi farovonligi uchun umumiy mas'uliyat hissini tarbiyalaydi.

O'z mohiyatiga ko'ra, boshlang'ich ta'limda milliy ta'lim nafaqat ilmiy bilimga ega, balki milliy o'zlikni anglash, fuqarolik mas'uliyati va global fuqarolik tuyg'ulari bilan sug'orilgan har tomonlama barkamol shaxslarni shakllantirishda katalizator bo'lib xizmat qiladi. Ta'limga ana shunday yaxlit yondashuv orqali biz o'z millati va dunyosi ravnaqiga hissa qo'shadigan yetakchi, innovatsion, mas'uliyatli fuqarolar avlodini tarbiyalashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yosh avlodga yoshligidan chaqoloqlik davridan boshlab bolalarga tarbiya berishimiz kerak. Hech qachon tarbiya berishga bolalar yosh hisoblanmaydi. Katta bo'lsa tarbiya beraman diyolmaymiz, unda tarbiya berishga kech bo'lishi mumkin. Bolalarning dunyoqarashini ham kengaytirishimiz lozim. Faqat diniy yo dunyoviy bilimlarni emas nafaqat ikkisini ham birgalikda berib, dunyo bilan ham nafas yashashni o'rgatish eng odilona yo'l deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Karimov I.A. Oila farovonligi - millat faravonligi /Xavfsizlik va tarqaror taraqqiyot yo_lida. -T.: "O'zbekiston", 1998, B.400.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - "O'qituvchi", 1996 yil.
3. Vatan va millat, muqaddasdir. -T.: "Ma'naviyat", 2000 yil.
4. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. — T.: Fan, 1995. — 87 b.
5. MuxsievA. Oilada milliy tarbiyaning metodik asoslari. — T.: Fan, 2009. - 120 b.
6. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 806-808.
6. Саматов, С. М., & Сайдуллаев, А. (2020). О некоторых свойствах собственного значения двухчастичного дискретного оператора Шредингера. In *Modern stochastic models and problems of actuarial mathematics* (pp. 114-115).

7. Ikromjonovna, J. S. (2023). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIKLARNING AFZALLIK JIHATLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 661-663.
8. Jumanova, S. (2023). AUTUMN MOTIF IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(2), 29.
9. Bromwich D. (2015). Trapped in the Virtual Classroom. The New York Review of Books.
10. Глазьев С.Ю. (2016). Экономика будущего. Есть ли у России шанс? / С.Ю.Глазьев. - М.: Книжный мир.
11. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583..
12. Майхнер Х.Е. (2002). Корпоративные тренинги / Х.Е. Майхнер. - М.: ЮНИТИ.
13. Jumanova, S. B. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHISINING ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI MILLIY QADRIYATLARIMIZNI O'RGANISHNING SAMARALI OMILLARI. Results of National Scientific Research International Journal, 1(9), 311-321.